

# O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida yig'ilish bo'lib o'tdi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida prorektorlar, barcha fakultet dekanlari, ularning o'rinbosarlari, professor-o'qituvchilar hamda tyutorlar ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi.



Yig'ilishda yaqinda Toshkent davlat pedagogika universiteti va Toshkent davlat texnika universitetida bo'lib o'tgan voqealarga e'tibor qaratildi.





Inson sha'ni, ayniqsa xotin-qizlarning qadr-qimmati davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bugungi kunda ushbu oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan, 570 dan ortig'i talabalar turar joyida, qolganlari ijarada turadigan talaba-qizlar holidan muntazam xabar olish borasida mas'ullarga topshiriqlar berildi.



Talaba-qizlarning odob-axloqiga e'tibor qaratish, ularning o'qishdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi.





Dars jarayonlari, ta'lim sifatini yanada oshirish, talabalar orasidagi jinoyatchilikni oldini olish, tyutorlar faoliyati borasida fikr-mulohazalar bildirildi.



Shuningdek yig'ilishda Toshkent davlat texnika universitetida bo'lib o'tgan voqealarga e'tibor qaratilib, talabalar turar-joylarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati, ijarada turadigan talabalarning yashash joylarining texnik holatini o'rganish, is gazidan zaharlanishga yo'l qo'ymaslikni qat'iy nazoratga olish bo'yicha mas'ullarga vazifalar belgilab berildi.





Yig'ilishda ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga javoblar qaytarildi.

**Matbuot kotibi**